

“Energetiklar kuni” ga bag‘ishlandi

2018 yil 22-dekabr kuni “Elektrotexnologiyalar va elektr jihozlaridan foydalanish” kafedrası taklifiga ko‘ra, “O‘zdavenergonazorat” inspeksiyasi Toshkent shahar bo‘limi inspektori Yuldash Yusupbekov va “O‘zbekenergo” AJ ga qarashli Markaziy magistrál elektr tarmoqlari korxonasi liniya xizmatlari boshlig‘i Alisher Asanovlarning “Energetiklar kuni” munosabati bilan “O‘zbekistonda energetikaning rivojlanishi” mavzusidagi muammoli ma‘ruzasi QSXET fakulteti professor-o‘qituvchilari va QXEA ta‘lim yo‘nalishi 2-bosqich 201-202-202 (a) - guruh talabalari ishtirokida V - bino, 6-Zal, soat 11:30da bo‘lib o‘tdi. Tadbirni ochib berish uchun “ETvaEJF” kafedrası mudiri A.Berdishev, “Qishloq va suv xo‘jaligini energiya ta‘minoti” fakulteti dekani t.f.d. professor A.Isoqovga so‘z berdi.

QSXET fakulteti dekani A.Isaqov 22-dekabr “Energetiklar kuni” nima uchun aynan 22-dekabr kuni nishonlanishi to‘g‘risida aytib o‘tdi va shu munosabat bilan barcha ustoz va murabbiylarni hamda shu sohada ishlab kelayotgan mutaxassislarni tabrikladi. Shundan keyin “O‘zdavenergonazorat” inspeksiyasi Toshkent shahar bo‘limi inspektori Yuldash Yusupbekovga so‘z berildi. Yu.Yusupbekov so‘zga chiqib, hozirgi vaqtda O‘zbekistonda energetikaning rivojlanishi bo‘yicha Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan bir qancha Qaror va loyihalar ishlab chiqilganligi va bu loyihalar bosqichma-bosqich amalga oshirilayotganligi to‘g‘risida aytib o‘tdi. Bundan tashqari elektr energiyasiga bo‘lgan talab jadallik bilan ortib bormoqda, ayniqsa buni qishloq va suv xo‘jaligi obyektlarida, ishlab chiqarish korxonalarida sezilarli o‘zgarishlarning bo‘layotganligini hech kim inkor etmaydi deya ta‘kidlab o‘tdi.

So‘ngra so‘z “O‘zbekenergo” AJga qarashli Markaziy magistrál elektr tarmoqlari korxonasi liniya xizmatlari boshlig‘i Alisher Asanovga so‘z berildi. A.Asanov O‘zbekistondagi ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasi va ularni iste‘molchilarga sifatli yetkazib berilishi to‘g‘risida barcha tinglovchilarga ma‘ruza qildi. Ma‘ruzadan so‘ng professor-o‘qituvchilar va talabalar tomonidan ma‘ruzachilarga O‘zbekistonda energetikani yanada rivojlantirish bo‘yicha nima ishlar qilinayotganligi to‘g‘risida savollar berildi, tegishli javoblar olindi. Bundan tashqari 2-bosqich iqtidorli talabalari ishlab chiqilgan loyihalari va laboratoriya qurilmalari hamda maketlari bilan ishtirok etishdi. Jumladan, 202(a)-guruh talabasi Nozimjon Shoazizov tomonidan g‘oyalashtirilayotgan “Shamol energiyasidan foydalanib, yoqilg‘ini tejash” bo‘yicha o‘z loyihasi bilan chiqib qisqacha ma‘ruza qilib o‘tdi. Yu.Yusupbekov barcha iqtidorli talabalarni, mazmundor kitoblar bilan tabrikladi. Shuni alohida aytib o‘tish kerakki, fakultet dekani A.Isaqov ham, kafedramiz professori A.Radjabov va dotsent M.Ibragimovni 22-dekabr kuni bilan fakultet nomidan esdalik sovg‘alari bilan qutladi!



**“Qishloq va suv xo‘jaligi energiya ta‘minoti” fakulteti Ma‘naviyat-ma‘rifat ishlari bo‘yicha
dekan muovini Sh.O.Berdiyev axboroti**

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov